

ERIK ARTUR BLERNING “MOLXONA” ASARI

Isaqov Quvonch Obid o'g'li

Student of the Department of “Electrical Machines and Drives

Engineering” Tashkent State Technical University, E-mail:

i.quvonc005@gmail.com

Tel: +998880348802

Annotatsiya: Ushbu maqolada Erik Artur Blerning mashhur “Molxona” asari kitobxon nigohi bilan sharhlanadi. Asarda tasvirlangan hayvonlar orqali berilgan satira, zulmga qarshi kurash g'oyasi va jamiyatdagi adolatsizliklarga ishora keng yoritiladi. Maqola asarning mazmuni, asosiy timsollar va muallifning maqsadini sodda, tushunarli tilda ochib beradi.

Kalit so'zlar: Molxona, Erik Artur Bler, tenglik, jamiyat, adolatsizlik.

“Molxona” — bu oddiy hayvonlar haqidagi ertak emas, balki jamiyatdagi zulm, hokimiyatni suiiste'mol qilish va erkinlikning qadri haqida chuqur ma'noga ega asardir. E.A Bler ushbu qissa orqali insoniyat tarixida qayta-qayta takrorlanadigan adolatsizliklarni hayvonlar hayoti orqali kitobxonga yaqin tarzda ko'rsatadi. Asar yengil o'qiladi, ammo undagi ramzlar va ishoralar juda teran.

“Molxona”dagi voqealar bir qarashda oddiy: hayvonlar xo'jalikni o'zlari boshqarishni xohlab, odamdan qutuladi. Ammo vaqt o'tishi bilan ular o'zlari kutgan erkinlik o'rniga yangi zulmga duch keladi. Cho'chqalar — ayniqsa Napoleon obrazi — hokimiyatni qo'lga olib, asta-sekin odamga o'xshab boradi. “Molxona” to'liq allegorik asardir, undagi hayvonlar ma'lum tarixiy shaxslar va siyosiy kuchlarni ifodalaydi. Napoleon cho'chqasi totalitar rahbar obrazini aks ettirsa, Qochqor propagandaning ramzi bo'lib xizmat qiladi. Boksyor esa mehnatkash xalqning sodiq, ammo aldangan qatlamini ifodalaydi. Shunday qilib, E.A Bler hayvonlar orqali siyosiy jarayonlarning asl mohiyatini ochib beradi. Asarda inqilob boshida hayvonlar tenglik va erkinlik g'oyalariga asoslangan jamiyat qurishga urinadi. Ammo vaqt o'tishi bilan hokimiyat asta-sekin Napoleon

qo'liga o'tadi. Qonunlarning qayta yozilishi, tartib-qoidaning o'zgarishi, qo'rqitish va zo'ravonlikning kuchayishi totalitar tuzumning barcha bosqichlarini aniq namoyon qiladi. Qo'chqor obrazi propaganda kuchini ifodalaydi. U yolg'on ma'lumot tarqatish, tarixni buzib ko'rsatish, Napoleonni ideallashtirish orqali hayvonlar ongini boshqaradi. Bu jarayon real hayotdagi siyosiy targ'ibot mexanizmlarining qanday ishlashini eslatadi. Asardagi mashhur "Hamma hayvonlar teng, ammo ayrimlari yanada tengroq"¹ iborasi hokimiyatning ikkiyuzlamachiligini ifodalaydi. Dastlab hayvonlar tenglik shiori asosida birlashgan bo'lsa, so'nggi bosqichda aynan shu shiorning o'zi buzilib, hukmdorlar o'zlariga qulay tarzda qayta yozib oladi. Bu siyosiy tizimlarda adolat g'oyasining naqadar oson buzilishini ko'rsatadi. Mayor - hayvonlar jamiyati g'oyasining asoschisi, o'limi oldidan "ozod hayvonlar jamiyati" qurishni vasiyat qiladi (qiyosan, ushbu obrazni koomunistik mafkura asoschilari - Fredrix Engels va Karl Marksga tenglashtirish mumkin. Snouboll - inqilobni tashkil qiluvchilardan va jamiyatning ilg'or fikrli rahbarlaridan biri. Ammo keyinchalik Napoleon tomonidan quvib yuboriladi va uning nomi ham qora qilinadi. (qiyosan, Leon Trotskiy ushbu obrazga ancha yaqin - chunki aynan Trostkiy Stalin tomonidan o'zining kommunistik qarashlariga zid bo'lganligi sababli barcha lavozimlardan chetlashtirilib, keyinchalik o'ldiritiladi).

Napoelon - hayvonlar jamiyatining yetakchisi, keyinchalik hayvonlar dohiysi (qiyosan Stalin va undan keyingi kommunistik davlat yetakchilari).

Benjamin - keksa dono eshshak, ko'p narsani biladi, aqlli ammo hech narsaga aralshmasdan yurishni afzal ko'radi (buni hamma narsani anglaydigan, ammo siyosatga aralashishdan o'zini tiyaidan ziyolilar qatlamiga qiyoslash mumkin).

Boksyor - o'ta mehnatkash, o'z sog'lidan ham jamiyat muvaffaqiyatini ustun qo'yadigan oxir-oqibat qassobxonaga topshirilgan ot (mehnatkash (sovet) aholi (si) ushbu obrazga qiyos qilinishi mumkin.)

Qichqiroq – ma'naviyatchi cho'chqa. Napoleonning topshiriqlarini boshqa

¹George Orwell. *Animal Farm*
<https://scientific-jl.com/>

hayvonlarga yetkazish uchun mas'ul obraz. U har qanday holatni ustamonlik bilan odamlarga singdirishga juda usta. (qiyosan: kommunistik propaganda mashinasi).

Muallif nima demoqchiligi yaqqol anglashiladi. U bizni faqat o'tmishni emas, bugungi hayotimizni ham qayta ko'rib chiqishga undaydi. E.A Bler hayvonlar timsoli orqali aytilmagan haqiqatlarni kitobxon tilida, sodda va kuchli tarzda yetkazadi. Shuning uchun ham bu asar o'nlab yillar o'tsa-da, o'z ahamiyatini yo'qotmagan ekan. Asarda juda qiziq jumla bor nigohlar cho'chqalardan odamlarga, odamlardan cho'chqalarga ko'char, ular yana va yana goh odamlarning basharalariga, goh cho'chqalarning basharalariga boqar, ammo ularning qay biri cho'chqa-yu, qay biri odam ekanini ajrata olmasdilar. Nigohlar cho'chqalardan odamlarga va aksincha ko'chishi – bu hokimiyatning o'zgaruvchan tabiati va hokimlar bilan xalq o'rtasidagi o'xshashlikni ko'rsatadi. Asarda oxirida cho'chqalar insonlarga o'xshab ketadi, ular zulmkor, yolg'onchi va manfaatparast bo'ladi. Shu sababli hayvonlar ularni farqlay olmaydi. Bu asar faqat Sovet tuzimi haqida emas, deb o'ylayman. U o'tgan davr va hozirgi ba'zi davlatlardagi adolatsiz boshqaruvlarni ham ochib beradi. Asarni o'qib, men o'zimga juda ko'p foydali fikrlar oldim. Bu asar chiroyli voqealar orqali hokimiyatni tushuntiradi. Napoleonga o'xshash rahbarlarning aslida haqiqiy sotqin, zulmkor va o'z manfaatlarini xalq manfaatlaridan ustun qo'yadigan shaxs ekanligini yaqqol ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. George Orwell. *Animal Farm*. Secker & Warburg, 1945. — Asarning birinchi nashri.
2. Britannica maqolasi: “Animal Farm” — George Orwell. — Asar mazmuni va nashri haqida ma'lumotlar.
3. The Orwell Foundation saytida “Animal Farm” sahifasi — asar yozilgan yillari va nashri haqida tahlil.
4. Uzpediya: “Molxona” roman haqida maqola (o'zbek tilida), nashr sanasi va asar haqida umumiy ma'lumot bilan.